



O‘ZBEKISTONDA ISHSIZLIK VA MEHNAT BOZORI SIYOSATI

Jo‘rayeva Lola

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Amonova M. Boboqulova R. va Xazratqulov B.

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ishsizlik muammosi va mehnat bozori siyosati tahlil qilinadi. Ishsizlikning sabablari, turlari va unga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari yoritiladi. Shuningdek, 2022-2024-yillarda mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, qonunchilik islohotlari va hukumat tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar batafsil ko‘rib chiqiladi.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: Maqolaning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda ishsizlik darajasini kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosiy chora-tadbirlarni tahlil qilish, mehnat bozoridagi muammolar va ularning yechimlari haqida batafsil ma‘lumot berishdir. Shuningdek, so‘nggi yillarda mehnat bozorida yuz bergan o‘zgarishlar, hukumatning islohotlari va yangi qonunlarning ta‘siri o‘rganiladi.

Natija: Maqola natijasida O‘zbekiston mehnat bozorida kuzatilayotgan tendensiyalar va ishsizlik darajasining kamayishi bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi haqida xulosalar beriladi. Yangi ish o‘rinlari yaratish, bandlikni oshirish va iqtisodiy o‘shirga ko‘mak beruvchi omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ishsizlik, mehnat bozori, iqtisodiy siyosat, bandlik, islohotlar, ish bilan ta‘minlash, mehnat munosabatlari, qonunchilik, O‘zbekiston, iqtisodiy rivojlanish.

Annotation: This article analyzes the issue of unemployment and labor market policy in Uzbekistan. The causes and types of unemployment, as well as the main directions of state policy to combat it, are discussed. Additionally, changes in the labor market from 2022 to 2024, legislative reforms, and government measures are examined in detail.

Purpose of this article: The main goal of this article is to analyze the political measures taken to reduce the unemployment rate in Uzbekistan and to provide detailed information on labor market issues and their solutions. Furthermore, the study explores labor market trends, government reforms, and the impact of new laws in recent years.

Results: As a result of the analysis, conclusions are drawn regarding trends in Uzbekistan’s labor market and the effectiveness of measures taken to reduce





unemployment. The article also examines factors that contribute to job creation, employment growth, and economic development.

Keywords: Unemployment, labor market, economic policy, employment, reforms, job creation, labor relations, legislation, Uzbekistan, economic development.

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы безработицы и политики на рынке труда в Узбекистане. Рассматриваются причины и виды безработицы, а также основные направления государственной политики по борьбе с этим явлением. Кроме того, подробно изучаются изменения на рынке труда в 2022-2024 годах, законодательные реформы и меры, принимаемые правительством.

Цель данной статьи: Основная цель статьи – проанализировать политические меры, принимаемые для снижения уровня безработицы в Узбекистане, а также подробно рассмотреть проблемы рынка труда и возможные пути их решения. Также рассматриваются тенденции на рынке труда, государственные реформы и влияние новых законов за последние годы.

Результаты: В результате проведенного анализа сделаны выводы о тенденциях на рынке труда Узбекистана и эффективности мер по сокращению безработицы. В статье также рассматриваются факторы, способствующие созданию новых рабочих мест, увеличению занятости и экономическому развитию.

Ключевые слова: Безработица, рынок труда, экономическая политика, занятость, реформы, создание рабочих мест, трудовые отношения, законодательство, Узбекистан, экономическое развитие.

Ishsizlik har qanday iqtisodiyotning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, u iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka ta'sir etadi. Mehnat bozori¹ siyosati esa ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholi farovonligini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ishsizlik turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin:

1. Tsiklik ishsizlik – iqtisodiyotdagi inqiroz yoki pasayish natijasida ish o'rinlarning kamayishi.

2. Tuzilmaviy ishsizlik – mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi muvofiqlik, ya'ni yangi texnologiyalar joriy qilinishi natijasida ayrim kasblarga ehtiyojning kamayishi.

¹ Mehnat bozori – bu ish kuchiga bo'lgan talab va taklifning shakllanishi va muvozanatlashuvi sodir bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir. Bunda ish beruvchilar (talab) va ish izlovchilar (taklif) o'zaro aloqaga kirishadi va mehnat shartlari, ish haqi miqdori, ish joylari soni kabi omillar bo'yicha kelishuvga erishadilar.





3. Frictional (o'tkinchi) ishsizlik – ish izlovchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi vaqtinchalik nomuvofiqlik sababli yuzaga keladi.

4. Yashirin ishsizlik – rasmiy statistikada kas etmagan, lekin real hayotda mavjud bo'lgan ishsizlik turi.

Mehnat bozori siyosati ishsizlikni kamaytirish va ishchi kuchining samarali bandligini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu siyosat ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi:

1. Faol mehnat bozori siyosati: kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlari, ish izlovchilarga ko'mak berish va maslahat xizmatlari, ish izlovchilarga ko'mak berish va maslahat xizmatlari, davlat tomonidan ish o'rinlari yaratish dasturlari, ish bilan ta'minlash dasturlarini rivojlantirish.

2. Noaktiv mehnat bozori siyosati: ishsizlik nafaqalarini taqdim etish, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, ishsizlar uchun moliyaviy yordam dasturlarini amalga oshirish.

2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda ishsizlik darajasi 6,8% ni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 2,1% punktga kamayishini anglatadi. 2022-yil 28-oktabrda yangi Mehnat kodeksi² qabul qilindi, bu mehnat munosabatlarini tartibga solishda va ishchi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. 2022-yilning ikkinchi choragida 16-30 yoshdagi yoshlar orasida ishsizlik darajasi 14,5%ni, ayollar orasida esa 12,8%ni tashkil etgan³. 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda mehnat resurslari soni 19,7 million kishini tashkil etdi. 2024-yilning noyabr oyida ishga joylashishga muhtoj aholi soni 876000 kishini tashkil etib, yil boshidan buyon 148000 kishiga kamaydi. 2020-yilda ishsizlik darajasi 10,5% bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 5,8%ga tushdi. 2020-2023- yillar oralig'ida O'zbekiston aholisi yillik o'sish sur'ati 2,1%ni tashkil etdi, bu esa yiliga tahminan 700-800 ming kishiga oshishni anglatadi. Aholining 57% mehnatga layoqatli yosh toifasiga kiradi. 2023-yil sentabr oyida o'rtacha nominal ish haqi yil davomida 18%ga oshib, 4,4 million so'mga yetdi. IT sohasida ish haqi 44%, mehmonxona va restoran sektorlarida 38%, transportda 37%, savdoda 32% va moliya sohasida 30%ga oshdi. O'zbekiston hukumati ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozorini rivojlantirish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi.⁴ Xususan, kichik va o'rta biznesni qo'llab quvvatlash, tadbirkorlikni rag'batlantirish, ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish kabi islohotlarni o'tkazildi. Bundan tashqari, "Yashil" ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya

² Mehnat kodeksi – 1994-yilning 1-aprelda qabul qilingan. Hozirda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi 2023-yilning 30-aprelda kuchga kirdi va u 34 bob, 581 ta moddadan iborat. Shuningdek, mamlakat hududida mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

³ Gazeta.uz – <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/08/unemployment>

⁴ Spot.uz - <https://www.spot.uz/oz/2023/02/22/Unemployed-population/>





samaradorligi va qishloq xo'jaligi kabi ekologik toza tarmoqlar ham rivojlandi. Shuningdek, 2023-yilda kambag'allik darajasi 14,1%dan 11%gacha pasayishi kuzatildi, bu esa bandlik darajasining oshishi va ishsizlikning kamayishi bilan bog'liq, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Eng ko'p bo'sh ish o'rinlari chakana savdo⁵, qurilish, umumiy ovqatlanish, ishlab chiqarish hamda ta'lim sohalariga to'g'ri keladi. Hududlar bo'yicha Toshkent shahri 60%, Samarand 115 va Toshkent viloyatlariga 9% yetakchilik qildi. Bu haqda, Markaziy bankning 2024-yilning birinchi choragi bo'yicha mehnat bozori sharhida keltirilgan. Qurilish va savdo tarmoqlaridagi ishchilar soni oshib, qishloq xo'jaligida, aksincha – kamaygan. Birinchi chorakda bo'sh ish o'rinlarining o'rtacha soni qariyb 36,8 mingtani tashkil etib, o'tgan yil yakuniga nisbatan, 14%ga oshgan. Yattlar⁶ soni 8,2%ga oshib, 262,8 ming kishini tashkil eydi. Ular asosan, chakana savdo +8,6% va maishiy xizmat ko'rsatish +18,9%, faoliyat yo'nalishlarida ro'yhatdan o'tmoqda. O'zini-o'zi band qilganlar soni yil boshidan 287 ming kishiga oshgan. Regulyator qurilish⁷ va xizmatlar sohasi o'sishi iqtisodiy o'sishning asosiy dravyerlari bo'lishini kutmoqda. Chakana savdoda bandlikning yuqori o'sishi talab bilan bog'liq. Ish izlovchilar orasida transport, qurilish, buxgalteriya va maishiy xizmat ko'rsatish sohalariga takliflar yuqori. Talab mavjudligiga qaramay, ishchi kuchi taklifida nomutanosibliklar mavjud. Bu IT, tibbiyot, ishlab chiqarish kabi sohalarda bo'sh ish o'rinlarining saqlanib qolayotgani va xususiy sektordagi yuqori va o'rta malakali ishchilarning ish haqlari o'rtasidagi tafovut ilan izohlanadi. Yangilanishlar maishiy xizmat, qo'riqlash\ xavfsizlik va talabalar uchun bo'sh ish o'rinlariga to'g'ri keladi. Ish haqining nominal o'sish sur'ati yillik 19,8%ni, inflyatsiya hisobiga esa 9,8%ni tashkil etdi. Ishchi kuchiga bo'lgan yuqori talab fonida savdo 24,4%ga, hamda axborot va aloqa 23,5%ga sohalarida yuqori ko'rsatkichlar saqlanib qoldi. Biroq, qurilish sohasida takliflar oshishi bilan ish haqi o'sishi pastroq 6,6%ga shakllandi. Tashqi mehnat migratsiyasi tendensiyalarida⁸ o'zgarishlar hozircha mavjud emas. Transchegaraviy pul o'tkazmalari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6%ga oshdi. Pul o'tkazmalaridagi o'sish migratsiya oqimi va valyuta kurslarining barqaror saqlanib qolgani bilan izohlanishi mumkin. Ko'nikma va malakalarga bo'lgan talab muhojirlarning ishga joylashishda asosiy to'siq bo'lb

⁵ Chakana savdo – tovar va xizmatlarning bevosita iste'molchilarga, ya'ni jismoniy shaxslarga shaxsiy foydalanish uchun sotilish jarayonidir. Chakana savdo korxonolari, do'konlar, supermarketlar, bozorlar va onlayn savdo platformalari orqali amalga oshiriladi.

⁶ Yatt (Yakka tartibdagi tadbirkor) – yuridik shaxs tashkil qilmasdan, mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi jismoniy shaxsdir.

⁷ Regulyator qurilish – bu muayyan soha yoki tarmoqda tartibga solish, nazorat qilish va boshqaruv mexanizmlarini yaratishga qaratilgan qurilish jarayoni. Bu atama odatda muhandislik, infratuzilma va energetika sohalarida ishlatiladi.

⁸ Tashqi mehnat migratsiyasi – bu fuaqarolarning doimiy yashash joyini o'zgartirmasdan, xorijiy mamlakatlarda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonidir.





qolmoqd. Ko'rilayotgan choralar esa qo'shimcha mehnat dividenti oshiradi. 2024-yilda minimal iste'mol xarajatlari qiymati 648 ming so'm etib belgilangandi. 1-maydan ayrim pensiya turlarining eng kam miqdorlari unga tenglashtirildi.⁹

2025-yil ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishda hal qiluvchi yil bo'ladi – Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2025-yil ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishda hal qiluvchi yil bo'lishini ta'kidladi. Bu uchun 1,5 mln aholi doimiy ishga joylashtirilib, 2 milliondan ziyod odam biznesga jalb qilinadi. 60 ta tuman va shahar kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantiriladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi bandligini ta'minlash va yangi yondashuvlar asosida kambag'illikni qisqartirishga oid chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi. Bu haqda, Prezident matbuot xabar qildi. Bu yil 5 200 000 fuqaroning bandligini ta'minlash va 1 500 000 aholini kambag'allikdan chiqarish maqsad qilingan. Birinchi marta 60 ta tuman va shahar kambag'allik va ishsizlikdan holi hududga aylantirilishi qayd etildi. Mahalla bankirlari bilan birga 1,5 million aholi doimiy ishga joylashtirilib, 2 000 000 dan ziyod odam biznesga jalb qilinadi. Shu maqsadda bu yil kichik biznes loyihalariga jami 120 trillion so'm kredit ajratiladi. Ta'kidlashicha, xorijiy tajriba asosida 32 ta yo'nalishda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha kambag'al oilalar a'zolari kooperatsiya asosida ishga olinadi. 123 ta tumanda kambag'al aholi 20 000 gektar o'rmon va ko'chatzor barpo etish hamda dorivor o'simliklar yetishtirishga jalb etiladi. Ular ekkan har 100 ta daraxt uchun 375 000 so'm subsidiya to'lanadi. Turizm salohiyati bor joylarda mehmon uylari va oshxonalar, muayyan pochta bo'limlarida elektron tijorat markazlari ochilib, kambag'al oila vakillari ishga olinadi. Umuman, 2025-yilda 6000 nafar 472 ta mahallada yangi yondashuvlar asosida loyihalar amalga oshirilib, 210 000 nafar aholi kambag'allikdan chiqariladi. Shuningdek, chekka hududlardagi, og'ir toifadagi qishloqlarga alohida e'tibor qaratilishi aytili. O'zbekiston mahallalari uyushmasi ularga ishchanlik ruhini olib kirib, boqimandalikni kamaytirishga, kambag'al oilalar mehnatini qo'llab-quvvatlashga mas'ul bo'lishi belgilandi. Davlat rahbari 2025-yil ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishda hal qiluvchi yil boshini yana bir bor ta'kidlab, bu boradagi chora-tadbirlarni tartibli va manzilli amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga bu vazifalarning bajarilishini qat'iy nazoratga olish topshirildi. Har bir loyiha, har bir chora-tadbir elektron platformaga kiritilib, yaratilgan ish o'rinlari soliq bazasida tekshirilishi belgilandi. Mahalliy hokimlik hodimlari va "mahalla yettiligi" uchun o'quvlar tashkil etish, yaxshi tajribalarni targ'ib qilish muhimigi aytili¹⁰.

⁹ Spot.uz – <https://www.spot.uz/oz/2024/05/13/labor-market/>

¹⁰ Gazeta.uz – <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/17/poverty>





Xulosa. O'zbekistonda ishsizlik va mehnat bozori siyosati so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ishsizlik darajasi sezilarli darajada pasayib, mehnat bozori barqaror rivojlanmoqda. Xususan, yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlik dasturlarini qo'llab-quvvatlash va kasb-hunar o'rgatish tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022-2024-yillar davomida mehnat bozorida qator islohotlar amalga oshirildi. Yangi Mehnat kodeksi qabul qilinib, ishchilarning huquqlari mustahkamlandi. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, "yashil" ish o'rinlarini yaratish, hamda xorijiy mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi. Natijada, bandlik darajasi oshib, aholining o'zini-o'zi band qilish imkoniyatlari kengaydi. Kelgusi yillarda mehnat bozori siyosatini yanada takomillashtirish uchun raqamli iqtisodiyot, kasbiy ta'lim, inklyuziv bandlik va ish o'rinlari yaratish bo'yicha qo'shimcha islohotlar amalga oshirilishi kutilmoqda. Xususan, 2025-yil mamlakatda ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hal qiluvchi yil sifatida belgilangan bo'lib, bu borada aniq rejalashtirilgan tizimlar amalga oshirilishi kutilmoqda. [Davlatning bandlik siyosati nafaqat qisqa muddatli muammolarni hal qilish, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va aholining farovonligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvga asoslanmoqda.](#)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rasmiy bayonotlari va farmonlari. – Prezident matbuot xizmati 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari. – 2023-2024.
3. OAV materiallari: Gazeta.uz, Kun.uz, Spot.uz saytlari va boshqa manbalar. – 2023-2024-2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Mehnat bozori va bandlik holati" bo'yicha statistik hisbot. – 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Ishsizlik va bandlik bo'yicha tahliliy sharh" – 2023.

